



**SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**SAMARQAND
VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**

*2022- YIL YANVAR-IYUN
(DASTLABKI MA'LUMOT)*




Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-iyun oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalaridan 12 954,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 108,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,3 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan sanoat– 2,3 %, o'sishi kuzatildi.


Shuningdek, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning– 2,1 % ga , Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash - 50,6 % ga hamda Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 13,3 % ga pasayish kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 106,6 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar-iyun

FHI,% da



2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12 468,9 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 96,3 % ini tashkil etdi.

2021-yil yanvar-iyun


95,0 %

2022-yil yanvar-iyun

96,3 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,7 % ni (2021- yilning yanvar-iyun oylarida – 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 16,1 % (17,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 19,7 % (14,5 %) va quyi texnologiyali – 59,8 % (62,9 %)ni tashkil etdi.


■ 2021- yil ■ 2022- yil




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 4,2 % (2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 115,5 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 10,4 % (2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 126,4 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 21,6 % (2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 87,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 36,2 % (2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 120,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 3,3 % (2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 115,2 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Aroq




O'simlik yog'i (tozalangan)



Paxta tolasi




Tamaki



Pivo



Yumshoq bug'doy va spelta uni



2022- yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda Aroq – 36,1 ming litr 100 % spirt (2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 20,2 % ga pasaygan), 23,7 ming tonna paxta tolasi (7,0 %) ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun	2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'lish, % da
Paxta tolasi, ming tonna.	25,5	23,7	93,0
Pivo, ming litr	14129,0	12872,0	91,1
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	89,2	88,4	99,2
Tozalangan paxta yog'l tonna	5166	6897	133,5
Konyak spirti – litr 100 % spirt	304,2	149,0	49,0
Tamaki, mln dona	3613,0	4355,8	120,6
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), tonna.	270,5	326,0	120,5
Paxta tiviti tonna	2268,3	2837,2	125,1

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyun oylarida metallurgiya sanoati ulushi 6,8 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 173,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 10,4 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 126,4 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 1 350,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyun oylarida mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 1,1% ni, uning fizik hajm indeksi esa 80,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 111,5 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 327,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 25,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 102,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 25,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 107,6 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 3 345,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 125,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 18,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 82,7 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2 334,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish sanoati



2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 138,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 %, fizik hajm indeksi 110,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 344,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 77,2 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi 75,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 126,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 251,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,9 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 97,9 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	206331,2	165120,5	-41210,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	3790057	4089296	299239

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 87,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	19 631,9	17 760,2	-1871,7
Plastmassa chiqindilari, tonna	230	327	97,0
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	48,7	50,2	1,5

Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 103,1 % ni va O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 9,5 (%) ga kamayganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 7 448,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 118,1 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 57,5 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar-iyun

38,6%

2022- yil
yanvar-iyun

36,2%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil
yanvar-iyun

61,4%

2022- yil
yanvar-iyun

63,8%


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 1,1 % (2021- yil yanvar-iyun oylarida 1,4 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 40,5 % ni, Tayloq tumani 10,4 % ni, Urgut tumani 10,4 % ni, Samarqand tumani 8,7 % ni, hamda Jomboy tumani 8,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (118,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Paxtachi tumanida (168,6 %) hamda Tayloq tumanida (165,7 %) qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 45,5 % shuningdek, Tayloq 11,2 %, Urgut 10,2 % ni, Samarqand tumanlarida 7,3 % ni tashkil etdi.



4 425,6 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-iyun

5 948,0 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-iyun

7 448,5 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-iyun



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi

2020-yil

87,0%

2021- yil

124,3%

2022 yil

118,1 %

o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 44,9 % shuningdek, tumanlardan Urgut 14,4 %, Tayloq 9,8 % ni, hamda Samarqand tumani 4,7 % ni tashkil etdi.

2 701,3 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-iyun

3 652,6 mlrd. so'm



2021- yil yanvar-iyun

4 755,8 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-iyun



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi




o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati


Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 32,6 % ni, shuningdek, Jomboy tumani 15,4 % ni, Tayloq tumani esa 11,3 % ni tashkil etdi.




1 655,4 mlrd. so'm
2020- yil yanvar-iyun

2 212,1 mlrd. so'm
2021- yil yanvar-iyun

2 608,0 mlrd. so'm
2022- yil yanvar-iyun



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi



o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Samarqand viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatning jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 45,5 % ni, shuningdek, Jomboy tumani 10,8 % ni, Urgut tumani esa 8,0 % ni tashkil etdi.

Samarqand viloyati

2020- yil

7 551,3 mlrd. so'm

2021 yil

9 492,9 mlrd. so'm

2022- yil

12 954,3 mlrd. so'm



2020- yil

103,9 %

2021- yil

122,5 %

2022- yil

133,1 %

Kattaqo'rg'on sh.

93,4

166,2

Samarqand sh.

108,6

5 899,6

Toyloq

115,4

983,8

Urgut

106,6

1 035,8

Nurobod

121,8

198,0

Samarqand

101,2

911,8

Paxtachi

115,3

273,9

Pastdarg'om

109,2

489,6

Payariq

87,2

187,6

Narpay

106,8

297,9

Qo'shrabot

101,5

40,9

Kattaqo'rg'on

103,7

312,9

Ishtixon

101,3

259,9

Jomboy

108,7

1 399,3

Bulung'ur

102,3

235,7

Oqdaryo

95,7

261,5


FHI, % da

mlrd. so'm

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5 044,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 38,9 % ni tashkil etdi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bulungʻur tumanida (100,0 %), Qoʻshrobot tumanida (100,0 %), Kattaqoʻrgʻon shahrida (93,1 %), Oqdaryo tumanida (94,5 %), Kattaqoʻrgʻon tumanida (82,4 %) tashkil etdi.



Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Narpay tumanida (16,8 %), Paxtachi (25,5 %), Ishtixon (31,4 %), Tayloq (33,2 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Samarqand vloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatimizda 8 458 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 766 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 20,9 %) Samarqand shahriga, 1 234 tasi (14,6 %) Urgut tumaniga, 761 tasi (9,0 %) Samarqand tumani hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan

2020-yil

784 dona

2021- yil

1 109 dona

2022- yil

1 013 dona



Jami faoliyat yuritayotgan

2020- yil

6 250 dona

2021- yil

7 753 dona

2022- yil

8 458 dona

yangi tashkil etilgan

faoliyat yuritayotgan